O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 114-son “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori yuzasidan

MA’LUMOTNOMA

Mazkur Qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi PF-6019-son «Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq qabul qilingan.

Mazkur Qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish bo‘yicha «yo‘l xaritasi».

Nizomga muvofiq monopoliyaga qarshi komplaens – faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi.

Mazkur Nizom quyidagi tartibda joriy etiladi:

- 1.01.2021 yildan – tajriba (sinov) tariqasida davlat boshqaruvi organlari, mahallif ijro etuvchi hokimiyat organlarida hamda Ro‘yxatga (Prezidentning 6.07.2020 yildagi PF-6019-son Farmoni bilan tasdiqlangan) kiritilgan davlat ishtirokidagi korxonalarda;
- 1.01.2022 yildan – tabiiy monopoliya sub’ektlari, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, shuningdek oxirgi 3 yilda tovar sotishdan jami tushumining o‘rtacha yillik miqdori 30 mlrd so‘mdan oshadigan korporativ buyurtmachilarda.

Nizomga ko‘ra davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanadi.

Vakolatli shaxs (bo‘linma) monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyatini monitoring qilishni amalga oshiradi.

Shuningdek, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash:

- davlat boshqaruvi organlarida – rahbar;
- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida – hokim;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda – ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxs (bo‘linma) quyidagilarni amalga oshiradi:

- raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishini monitoring qiladi;
- faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qiladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqadi;
- tizimning faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtiradi;
- monopoliyaga qarshi kurashish organi (Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari) bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashadi;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan «yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta’minlaydi va boshqalar.